

OLIV TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING O'QUV FAOLIYATIDA AXBOROTLARNI MUSTAQIL IZLAB TOPIH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Turobova Ziyoda Shuhratovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning o’quv faoliyatida axborotlarni mustaqil izlab topish malakalarini shakllantirish yo’llari yoritilgan

Kalit so’zlar: Oliy ta’lim muassasasi, talaba, o’quv faoliyat, axborot, qidiruv, elektron qidiruv tizimlari

Аннотации: В данной статье выделены пути формирования навыков самостоятельного поиска информации в учебной деятельности студентов, обучающихся в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Вуз, студент, образовательная деятельность, информация, поиск, электронные поисковые системы

Annotations: In this article, the ways of forming the skills of independent searching for information in the educational activities of students studying in higher educational institutions are highlighted.

Keywords: Higher education institution, student, educational activity, information, search, electronic search systems

Kundan - kunga taraqqiy etib borayotgan jamiyatimiz ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog’lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo’ymoqda. Mamlakatimizda bu borada ta’lim mazmunini yangilash hamda ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirish bo’yicha olib borilgan islohotlar kundan kunga ortib bormoqda.

Inson rivojlanishining har qanday davrida, bir nechta faoliyat turlarini amalga oshiradi. Masalan, o’yin faoliyati, mehnat faoliyati, o’quv faoliyati, hayotiy faoliyat, aloqa faoliyati, sport faoliyati va hokazo faoliyatlar. Har bir shaxs ushbu faoliyatlarini turlicha tashkil qilib boradi.

O’quv faoliyati - bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O’quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo’luvchi uzluksiz jarayondir. [2] Bu faoliyatda muayyan axborotni, harakatlarni, xulq-atvorining shakllarini o’zlashtirishga qaratilgan. Kundalik turmushda har bir mutaxassis turli xil

axborotlar bilan ish yuritadi. Talabalar o'quv faoliyatini tashkil etishda ham axborotning o'rni benihoyt katta. O'quv faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasasi talabalar axborotlarni turli usullarda qabul qilishadi. Bundan tashqari har bir talaba o'zi axborotni mustaqil izlab topishga intilishi zarur. Chunki dars jarayonida ma'lum bir belgilangan axborotlar o'qituvchi tomonidan taqdim etiladi. Vaholanki, mavzu doirasida mavjud axborotlarning chegarasi cheksiz. Shuning uchun OTM talabarlari axborotlarni mustaqil izlab topishi uchun ularga turli yo'nalish, ko'rsatma qaysi yo'llar orqali izlashlari bo'yicha metodik yordam ko'rsatish zarur. Hozirda biz axborot-texnologiyalari rivojlangan bir davrda yashamoqdamiz. Hozirgi kunda axborot resurslari, axborotlashtirilgan jamiyatning asosi hisoblanadi. Jamiyat axborotlashtirish yo'nalishida ilgari odimlashi bilan, uning axborot resurslari ham rivojlanib, takomillashib boradi. Axborot resurslari jamiyatning milliy boyligi bo'lib jamiyatning rivojlanish salohiyati va mavqeini belgilab beradi. Axborot resurslari qanchalik aniq va to'la ravishda ro'yxatga olinsa, ulardan foydalanish shunchalik samarali bo'ladi. Shu jumladan oliy ta'lim muassasasi talabalarining o'quv va hayotiy faoliyatida ham axborotlarning o'rini beqiyos. Oliy ta'lim muassasasi talabarlari o'quv faoliyati davomida bir qancha turli xil bilimlarni egallashlari zarur. Bunda ham ularga axborot katta yordam beradi. Hozirgi kunda talabalar axborotlarni mustaqil izlash, o'zlarining kreativliklaridan kelib chiqqan holda dars jarayoniga o'qituvchi bilan teng holda tayyor bo'lib kelishlari talab qilinmoqda. Aslida talabalarimizda axborotlarni mustaqil izlab topish ko'nikmalari qay darajada?, Berilgan topshiq'larga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ular topa olayaptimi? Afsuslar bo'lsinki talabalarimiz o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarga tayanib qolishgan. To'g'ri, 100% talaba deyolmaymiz. Bu fikrimiz nisbiy albatta. O'quv faoliyati shaxsning yangi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash jarayoni. *Oliy ta'lim muassasasi talabarlari o'quv faoliyatini keng qamrovda tashkil etish hamda shu orqali talabalar bilim saviyasini o'stirish maqsadga muvofiq sanaladi.*

Fikrimizning yorqin dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824 –sonli qarorini misol qilib oladigan bo'lsak, ushbu qarorda Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo'lgan professor – o'qituvchilar bilan ta'minlash, bo'lajak pedagoglarning bilim saviyasini o'stirish, ta'lim sifat ko'rsatkichini yanada kengaytirish, ta'lim dasturlari ishlab chiqish kabi bir qator masalalar qo'yilgan. [1]

Aslida axborot qidirish ko'nikmalari talabalarining o'qishi uchun ham, kelajakdagi professional hayoti uchun ham muhimdir.

Axborotlarni mustaqil izlashda talabalarga yanada aniqroq usullar haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tamiz:

Biz axborotlarni qanday izlaymiz: ma'lumot qidirish (so'rov) va ko'rish

Yondashuvdagi asosiy farqni ma'lumot qidirish yoki so'rovni ko'rish bilan solishtirish orqali umumlashtirish mumkin. Bu atamalar nimani anglatadi?

So'rov deb ham ataladigan ma'lumotni qidirish, aniq ifodalangan ma'lumotga bo'lgan ehtiyojni, ya'ni sizga kerak bo'lgan ma'lumot turi haqida juda aniq tasavvurga ega bo'lganingizda, aniq belgilangan, maqsadli ma'lumotni anglatadi. Biroq, ma'lumot qidirish, sizda hali topish uchun aniq ob'ektlar bo'lmagan, ammo ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlaringizni aniq belgilab qo'ygan va sizga kerak bo'lgan ma'lumot turiga nisbatan aniq bo'lsa, qidiruvni ham qamrab olishi mumkin.

Rouli va Xartli (2008) axborot qidirish toifasiga kiruvchi uch xil qidiruv turini aniqlaydi:

1. *Ma'lum bo'lgan narsalarni qidirish:* Agar sizda uni aniqlash va topish uchun ob'ekt haqida etarli ma'lumotlarga ega bo'lsangiz, masalan, muallifning ismi, sarlavhasi, ISBN, jurnal nomi, jild va nashr raqami.

2. *Faktli qidiruv:* Sizga aniq faktlar, masalan, O'zbekistonning yoki boshqa davlatlarning ta'lim turlari haqida ma'lumot kerak bo'lganda.

3. *Mavzuni qidirish:* Bu siz to'liq aniqlay olmaydigan mavzu bo'yicha ma'lumotni qidirishni o'z ichiga oladi. Bu qidiruvning eng qiyin turi, chunki siz aniq nima kerakligini va nimani xavfsiz rad etishingiz mumkinligini aniqlay olmaysiz. Rouli va Xartli (2008) ta'kidlashicha, siz qidiruvda bo'lganingizda (1) yetarli darajada tegishli ma'lumotlarni olishga harakat qilasiz va shu bilan birga juda ko'p yoki juda kam ma'lumotni yoki juda ko'p ahamiyatsiz ma'lumotlarni olishdan qochishga harakat qilasiz. Qidirishdan farqli o'laroq, ko'rib chiqish maqsadli bo'lmagan qidiruvdir, bunda sizning ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojingiz noto'g'ri aniqlangan yoki juda umumiy bo'lsa yoki siz o'rganayotgan mavzu bilan tanish emassiz. Ko'rib chiqish sizga mavzu maydonini his qilish imkonini beradi, bu esa bir muncha vaqt o'tgach, yanada maqsadli va aniq qidiruv shakliga aylanadi. Ko'rishning maqsadi - kashfiyot. Siz o'zingizning vazifangizni bajarishda sizga yordam beradigan ma'lumotni topish umidida ma'lumotlarni ko'rib chiqasiz va varaqlaysiz. Aslida, siz hali bilmagan axborot resurslarini qidirypasiz. Taqqoslash uchun ma'lumot qidirish, siz aniq biladigan yoki hech bo'lmaganda u erda biron bir joyda shubhali bo'lgan manbalarni qidirishni o'z ichiga oladi. Biz ilhom olish yoki kutilmaganda mukammal manbaga duch kelish umidida varaqlaymiz. Internet orqali havolalarga rioya qilish, kutubxona javonlarini skanerlash, kitoblardagi mundarijalarni o'qish, veb-saytdagi menyular bo'ylab harakatlanish - bularning barchasi ko'rib chiqish xatti-harakatlariga misoldir. Ba'zan biz ushbu mukammal manbani topmagunimizcha, qidiruvimizni keng va tor doirada boshlashimiz kerak.

Ko'pgina elektron qidiruv tizimlari endi ma'lumotlarni qidirish va ko'rish xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Amazon kabi veb-saytni o'ylab ko'ring: siz, masalan,

qidiruv maydoniga kalit so'zlarni yoki mualliflarning ismlarini kiritish orqali to'g'ridan-to'g'ri elementni qidirishni tanlashingiz mumkin yoki nima topmoqchi ekanligingizga ishonchingiz komil bo'lmasa, turli xil saytlarni ko'rib chiqishingiz mumkin. Sizing ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojningiz aniq yoki noaniq va umumiy bo'lganiga qarab, raqamli detektiv sifatida siz qidirish uchun mos manbalarni qanday tanlashni va yuqori sifatli topshiriqlarni bajarishga imkon beradigan samarali qidiruv strategiyalarini qanday ishlab chiqishni bilishingiz kerak. [5]

Oliy ta'limda tahsil olayotgan har bir talaba o'quv faoliyati jarayonida axborotlardan to'g'ri foydalanmog'i lozim. Talabalar o'quv faoliyati jarayonida o'qituvchi bergan ma'lumotlarga tayanib qolmasdan o'zlari mustaqil izlanib, axborotlarni mustaqil izlab topishlari orqali bilimlar doirasini yanada kengaytirishlari bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekanligi barchamizga ma'lum. Shu sababli o'qituvchi ham oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalarga axborotlarni mustaqil izlab topish ma'lakalarini shakllantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 824- son qarori;
2. Umarov B.M Psixologiya Toshkent – 2012
3. Abdurasulov F.P «Pedagogik mahorat» fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi / “Kasb ta'limdagi o'qitish texnologiyasi” seriyasidan. Jizzax.: JizPI, 2010
4. Mavlonova R, Rahmonqulova N Boshlang'ich Ta'limda Pedagogika, Innovatsiya, Integratsiya O'quv qo'llanma Toshkent – 2013
5. <https://www.sciencedirect.com/>